

Sharq she'riyatida ohang va nutqiy tavsif

Go'zal Erkinovna Xalikulova

Annotatsiya: Ilmiy maqolada aktyorning o'ziga xos emotsiyonallik, nozik tabiat va go'zal ifoda vositalarini nutqining musiqiyligi, xatti-harakatini yumshoqligi, yurish-turishdagi ma'nolorlik tomoshabinda katta taassurot qoldirgan, nozik ziyoli qiyofasida muhrlanib qolgan. T.Azizovning guvohlik berishicha, 70-yillar boshida Olim Xo'jayev Moskvaga rejissorlik kasbidan saboq olish maqsadida o'qishga ketadi Mana shu paytda Navoiyni Toshxo'ja Xo'jayevning o'zi o'ynagan. "Ijroda Toshxo'ja Xo'jayev oltinchi ko'rinishdagi, "Falak solmish mening qalbimga g'ashlik" deb boshlanadigan monologini o'ziga xos qilib ijro etgan. Finalda aytadigan monologini esa qo'lida sham ko'targan holda, kuchli ehtiros bilan aytgan.

Kalit so'zlar: obrazga badiiy sayqal berish, bilimdonlik, tarixiy shaxslar, sahnalarda drama, falsafiy fikrlar, dramani sahnalashtirish

Description of melody and speech in oriental poetry

Gozal Erkinovna Khalikulova

Abstract: The scientific article reveals the subtle character and excellent means of expression, the unique emotionality of the actor, the musicality of his speech, the softness of his behavior, the meaningfulness of his behavior made a great impression on the audience, imprinted in the image of a refined intellectual. According to T.Azizov, in the early 1970s, Olim Khodjaev left for Moscow to study directing, at that time Tashkhodzha Khodjaev himself played Navoi. "In the performance of Tashkhodzha, Khodjaev performed his monologue in the sixth grade in his own way, which begins with the phrase "Falak solmysh menik halim gashlik." He delivered his monologue at the end with great passion, holding a candle in his hand.

Key words: artistic polishing of the image, cognition, historical figures, drama on stage, philosophical reflections, staging of drama

O.Xo'jayevnint shoir tabiat inson bo'lganligini, bolaligidan Sharq she'riyatini yaxshi bilgani, shuningdek, Navoiy yashagan davrni, uning ijodi, g'azal va ruboilarining mazmunini tushunib tahlil qila olganligi va sevib yodlagani, shoirning "Terma devoni" uning doimiy hamrohi bo'lganligini alohida e'tirof etish lozim. O.Xo'jayev M.Uyg'ur yordamida obrazga sayqal berib, Navoiyning badiiy mahoratini tilini uslubini yaxshi o'zlashtirgan. Shuning uchun ijroda sahnaviy ko'rinishlarda

o‘zini tutish va gapirish sirlarini yaxshi bilgan. Bu bilimdonlik keyinchalik K.Yashin, Uyg‘un, I.Sulton, Shekspir, Ostrovskiy, Chexov Gorkiy asarlarida o‘ynagan rollarida jo‘shqinlik, erkinlik, tabiiylik kabi fazilatlarni egallashga yordam bergen. Aktyorda o‘ziga xos emotsiyonallik, nozik tabiat va go‘zal ifoda vositalarini nutqining musiqiyligi, xatti-harakatini yumshoqligi, yurish-turishdagi ma’nolorlik tomoshabinda katta taassurot qoldirgan, nozik ziyyoli qiyofasida muhrlanib qolgan.

Oradan yigirma yil vaqt o‘tgach, 1968-yilda “Alisher Navoiy” dramasini atoqli rejissor Toshxo‘ja Xo‘jayev sahnalashtirgan.

Shuni aytib o‘tish kerakki, o‘zi sahnalashtirgan asarlari bilan teatr faoliyatini pog‘onama-pog‘ona yuqoriga ko‘targan T.Xo‘jayev M.Uyg‘ur va uning an’analariga mehr qo‘ygan edi. “Alisher Navoiy”ni qayta sahnalashtirishi ham shu mehr va e’tiqodning ifodasi edi.

Sahna nutqi texnikasining rivojlanishi aktyorning bir necha yo’nalishda o‘z ustida ishlashini nazarda tutadi. Sahna ijrosi va nutqni rivojlantirish mashqlari K. S. Stanislavskiyning tavsiyalari asosida mustaqil ravishda o’rganilishi mumkin, siz teatr universitetlarida va aktyorlik maktablarida treninglarda qatnashishingiz mumkin. Asosiysi, o‘z kuchingizga ishonish va u erda to’xtamaslik.

T.Xo‘jayev sahnalashtirgan variantda rejissor yechimini hisobga olmaganda, ijrochilar o‘zgartirilmagan. Navoiyni O.Xo‘jayevning o‘zi o‘ynagan. Final sahnasida oldinga variantdan farqli o‘laroq Navoiy oxirgi “Xalqimga! Ijodimga!” so‘zlarini aytib bo‘lgach, sahaning orqasiga emas balki tomoshabin orasidan o‘tib chiqib ketar edi. Bu bilan rejissor Navoiyni xalqqa yaqinlashtirmoqchi bo‘lgan.

T.Azizovning guvohlik berishicha, 70-yillar boshida Olim Xo‘jayev Moskvaga rejissorlik kasbidan saboq olish maqsadida o‘qishga ketadi Mana shu paytda Navoiyni Toshxo‘ja Xo‘jayevning o‘zi o‘ynagan. “Ijroda Toshxo‘ja Xo‘jayev oltinchi ko‘rinishdagi, “Falak solmish mening qalbimga g‘ashlik” deb boshlanadigan monologini o‘ziga xos qilib ijro etgan. Finalda aytadigan monologini esa qo‘lida sham ko‘targan holda, kuchli ehtiros bilan aytgan. Bu bilan T.Xo‘jayev Navoiy – zamonamiz shamchirog‘i degan fikrni ifodalamoqchi bo‘lgan”.

T.Azizov asarni qayta sahnalashtirishda tarixda bir-biriga o‘xshamagan Navoiy obrazini yaratgan aktyorlarni hayolidan o‘tkazar ekan, nega qariyb yarim asrdan buyon bu asarni qayta sahnalashtirish an’anasi davom etib kelishining sababini qidiradi. Nihoyat, “Alisher Navoiy”ning o‘lmas asarga aylanib qolganligining sababi drama go‘zal tilda yozilganligi, degan xulosaga keladi.

Darhaqiqat, dramaturglar Uyg‘un va I.Sulton p’esa tilini nihoyatda go‘zal, badiiy mukammal qilib yaratgan edilar. Drama tilining eng muhim talabalaridan biri bo‘lgan - soddalikdan ustalik bilan foydalanganlar. P’esada faqat g‘oyaviygina emas, ayni vaqtida badiiy asos ham mavjud, bo‘lib, ko‘tarinki, emotsiyonal ruh bilan sug‘orilgan.

Drama tilining sodda, hammaga tushunarli tarzda bo‘lishi katta ahamiyatga egadir. Masalan, kishi roman o‘qisa, unda tushinilmagan so‘z ustida o‘ylash, uning ma’nosini esga olish yoki lug‘atdan foydalanish imkoniyati bor. Tomoshabin esa bunday imkoniyatlarga ega emas. Shu sababli sahnadan aytilgan har bir so‘z tomoshabin uchun tushunarli bo‘lishi shart. Masalan, “Alisher Navoiy” dramasi bilan Oybekning “Navoiy” romanini til jihatidan solishtirgan har bir kishi romanda arxaizmlar dramadagidan ko‘ra ancha ko‘p ekanini darrov payqab oladi. Oybek romanida arxaizmlarning nisbatan mo‘lligi tarixiy kaloritni maydonga keltirish uchun zarur narsa. Agar bu fazilat dramaga ko‘chirilganda edi, kamchilikka aylangan, ya’ni dramaning tomoshabin tomonidan hazm etilishini qiyinlashtirgan bo‘lar edi. Dramadagi personajlar qaysi tarixiy davr va qaysi sharoitda yashagan bo‘lmisin, tomosha zalida o‘tirgan kishilarning sodda tiliga juda ham yaqin tilda gaplashmoqlari zarur. Shu sababli mualliflar mualliflar ba’zi arxaizmlardan voz kechib, adabiy til normalarini saqlagan.

P’esada Navoiy obrazi ma’lum darajada bo‘rttirilganidan qat’iy nazar, u shubhasiz, dramaning eng ulkan yutug‘idir. Haqiqatdan ham Navoiy obrazi dramaning butun jozibasini ta’minlab turuvchi obrazdir. Dramada Navoiyning tili o‘ta mahorat bilan ishlangan. Mualliflar Navoiy ijodidagi o‘ziga xos milliy vositalarni, falsafiy aqidalari-yu, poetik mahoratini sinchiklab o‘rganib, Navoiy tilida shoironalik, ohangdorlik, yuksak ruhiyatni saklab, uni yirik tarixiy shaxs sifatida namoyon qila olganlar.

Adabiyotshunos olim H.Abdusamatov o‘zining “Drama nazariyasi” deb nomlangan risolasining “til - dramaning badiiy libosi” bobida p’esaning tili, luqma, dialog va monologlarda so‘zning va harakatning uyg‘unligini aynan mana shu “Alisher Navoiy” dramasi misolida ko‘rib chiqadi. Muallif dramaturglarning tilda erishgan yutuqlarini yuqori baholaydi: “Mualliflar o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, ko‘p badiiy usullar va adabiy ifodalar orqali soddalikka, jozibadorlikka erishganlar. Bu usullar va vositalar haqqoniy tasvir tamoyillariga yo‘naltirilgan, ya’ni ishlatilayotgan so‘zlar hayotga, inson mohiyatiga, holatiga monand tushishiga qaratilgan”. Shu bilan birga asarda voqealarni to‘la tasvirlashga tilni to‘la bo‘ysundirilgani va mualliflarning uslubi ijtimoiy va badiiy vazifalarni bajarish zaminida ro‘yobga chiqqanligini olim alohida ta’kidlab o‘tgan. “Dramadagi qator luqmalar, monolog va dialoglar sirdan qaraganda, “muloyim va osoyishta ko‘ringani” bilan, aslida “chuqur mazmunga ega”dir.

Foydalilanigan adabiyotlar

- Холиқулова, Г.Э. (2007). Саҳна нутқи. Тошкент-2007 й.
- Холиқулова, Г.Э. People’s poet of uzbekistan mukhammad yusuf – singer of the native land and love. International conference. Pages 154-159.

3. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи ва жонли тил. Мулоқот, Тошкент. 35 – бет.
4. Гўзал Эркиновна Халикулова. Маннон Уйгур – выдающийся режиссёр узбекского театра и мастер по сценической речи. Әдебиет және өнер институты, Алматы. Вопросы литературы и искусства им. М.Ауэзова. 59-60 стр.
5. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи ва жонли тил. Мулоқот, Тошкент. 35-бет.
6. ГЭ Халикулова. Актёрлар нутқда Навоий шеърияти. Театр, Тошкент. 10-11- бетлар.
7. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳнада тарихий мухит тасвири. Театр, Тошкент. 20-21- бетлар.
8. Гўзал Эркиновна Халикулова. Искусство речи в историко-поэтических спектаклях. / Искусство Узбекистана. История и современность. Материалы научно-практической конференции молодых ученых. Ташкент: Поколение нового века. Стр. 50-51.
9. Гўзал Эркиновна Халикулова. Замонавий театр хақида шахсий мулоҳазалар. Қалдирғоч, Тошкент. №1(4). 2 – бет.
10. Гўзал Эркиновна Халикулова. Вопросы сценической речи в интерпретации узбекской исторической драмы (80-90-е годы). Автореферат 2004 г. стр. 1 – 21.
11. ГЭ Халикулова. Саҳнани актёр безайди. Театр, Тошкент, 22-23-бетлар
12. Guzal Khalikulova. “Мирзо Улугбек” тарихий драмасида тил масалалари. /Сб науч. тр. “Нафосат”. 144-147.
13. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи (тарихий драмалар талқинида). Ўқув қўлланма. Тошкент. ЎзДСИ. 1 – 9 – бет.
14. Гўзал Эркиновна Халикулова. Husni ta'il - искусство силы. Журнал Театр, Ташкент. № 6. 14-15 стр.
15. Гўзал Эркиновна Халикулова. Чувство уважения. Журнал Калдиргоч, Ташкент. Стр 41.
16. Гўзал Эркиновна Халикулова. Гигиена и техника чтения книг. Журнал Калдиргоч, Ташкент. 21(42).
17. Гўзал Эркиновна Халикулова. Мусиқий ижрочиликда ёшларнинг фаоллигини ошириш ва уни ривожлантириш масалалари. Тошкент ТДМИ, (Тўплам).
18. Гўзал Эркиновна Халикулова. Санъат равнақи йўлида. Журнал Қалдирғоч, Тошкент. 2010/1.
19. Гўзал Эркиновна Халикулова. Xассос сўз устаси. “Мухсин Ҳамидов (Бадиий сўз устаси)” номли монографияси учун мақола 2010. ЎзДСИ. 8 – бет.

20. Гўзал Эркиновна Халикулова. Маънавий баркамоллик давр талаби. ЖизПИ, тўплами. 363 – бет.

21. Гўзал Эркиновна Халикулова. Ўзбекистон давлат санъат институтида кадрлар тайёрлаш сифатини яхшилаш ва соҳани ривожлантиришда амалга оширилаётган ишлар. Ўзбекистон санъати ва маданиятида замон қаҳрамони образини яратиш муаммолари ва ечимлари” Тўплам. ЎзДСИ.

22. Гўзал Эркиновна Халикулова. Юорт тараққиёти, халқ фаровонлиги ҳамда баркамол авлодни тарбиялашда санъатнинг роли. Халқаро Симпозиум материаллари тўплами.

23. Гўзал Эркиновна Халикулова. Формирование сценической речи в профессиональных спектаклях и роль системы Станиславского в развитии театрального искусства. Брянск, Сборник материалов VI Международного симпозиума. Стр. 219 – 225.

24. Гўзал Эркиновна Халикулова. Замонавий раҳбар аёлнинг профессионал нуткини оширишга доир. 2012 й. “Аёл – маънавият гулшани” ЖизПи., 4-Республика илмий-амалий конференцияси Тўплам.

25. Гўзал Эркиновна Халикулова. Актёрнинг саҳна нутқи маҳоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар. 2012/3/27. Глобаллашув жараённида хореография санъати соҳасида миллийликни сақлаш муаммолари 2- республика конференцияси. Тошкент.

26. Гўзал Эркиновна Халикулова. Театрларда адабий тил масъулияти. 2013 й. Янги давр санъати: анъанавийлик ва трасформацион жараёнлар. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 82-84 бет.

27. Гўзал Эркиновна Халикулова. Спектакль яратишда сўз ва ҳаракат уйғунлиги масалалари. 2014. Тошкент.: “Мумтоз сўз”. 110-114 бетлар.

28. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна асарларида қаҳрамон характерини яратиш масалалари. Республика илмий-назарий ва амалий конференция материаллари. Тошкент: Наврӯз. 112 – 117 бетлар.

29. Гўзал Эркиновна Халикулова. Институтда олий малакали илмий ва илмий педагог кадрлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари. Театр// – Тошкент: 2014. (3). 9 -10 – бет.

30. Гўзал Эркиновна Халикулова. Сўз масъулиятини англаш ҳам санъат. Хуррият// – Тошкент. (43) 6-7 бетлар.